

XALQARO OMMAVIY HUQUQDA DIPLOMATIYANING O‘RNI

Qimatboyev Shavkatjon Furqatzoda

Namangan davlat universiteti yuridik fakulteti 3 bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Kishilik jamiyati shakillanish jarayonida munosabatlar o‘ta muhim ro‘l o‘ynaydi. Munosabat shakillanish jarayoni uning mezoniy strukturasi bo‘lib, davrlar aro rivojlanib keladi. Bu rivojlanish natijasida diplomatiya shakillanadi, qadimgi dunyo diplomatiyani o‘z xolicha tushunib munozaralar kelishuv va hamkorlik deb xisoblashgan. Jamiyat va davlat rivojlanishida esa Diplomatiyaning o‘rni juda katta.

Kalit so‘zlar: Xalqaro munosabatlar, rivojlanish, elchi, elchixon, qonun, huquq, hamkorlik.

ABSTRACT

Relationships play an important role in the formation of human society plays The process of relationship formation is its criterion structure and periods is developing. As a result of this development, diplomacy is formed, ancient. The world understands diplomacy in a small way as discussions, agreement and cooperation calculated. Diplomacy plays a very important role in the development of society and the state.

Keywords: International relations, development, ambassador, embassy, law, law, cooperation.

KIRISH

Xalqaro ommaviy huquq nima?

Xalqaro ommaviy huquq tinchlik kafolati sifatida hamkorlik va muzokaralarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlatlar va xalqaro tashkilotlarning harakatlarini tartibga soluvchi normalarni o‘rganish va belgilashga mas’uldir. Shunday qilib, xalqaro hamjamiyatni huquqiy tartibini ta’minlovchi huquq sohasi. Xalqaro huquq tushunchasi xalqaro ommaviy huquqni bildiradi.

Xalqaro ommaviy huquq-davlatlar o‘rtasidagi xalqaro munosobatlarning bazaviy xalqaro printsiplarini belgilab beradi. Xalqaro ommaviy huquq davlatlararo milliy munosabatlarni, davlatlar bilan xalqaro tashkilotlar, xalqaro miqiyosda fuqarolarning asosiy huquq, burch va erkinliklarini, xalqaro huquq doirasida xalqaro nizo va kelishmovchiliklarni hal qilish bilan bog‘liq hamda boshqa munosabatlarni o‘zida ifodalaydi.

ASOSIY QISM

Xalqaro huquq — xalqaro muloqotdagi davlatlararo va boshqa qatnashuvchilar (sub'yektlar) o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi ommaviy yuridik prinsiplar va normalar majmui. Davlat ichki huquqidan farqli ravishda Xalqaro huquq ob'yekta o'z mazmun mohiyati jihatdan alohida davlat vakolatidan tashqariga chiquvchi xalqaro, aniqrog'i, davlatlararo munosabatlar hisoblanadi. Davlat ichki huquqidan farqli ravishda Xalqaro huquq normalarini yaratish va bajarilishini ta'minlash bilan shug'ullanadigan qonun chiqaruvchi organlar yo'q. Xalqaro huquqning asosiy sub'yektlari davlatlar hisoblanadi.

Xalqaro ommaviy huquq xalqaro shartnomalar huquqi, diplomatik va konsullik huquqi, xalqaro tashkilotlar huquqi, inson huquklari bo'yicha xalqaro huquq, xalqaro iqtisodiy huquq, xalqaro ekologiya huquqi, xalqaro jinoyat huquqi, xalqaro dengiz huquqi, xalqaro havo huquqi, xalqaro kosmik huquq kabi sohalarni o'z ichiga oladi.

Diplomatiya — davlatlarning tashqi siyosat, sohasidagi vazifalarini amalga oshirish, shuningdek, chet elda huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasidagi rasmiy faoliyati. „Diplomatiya“ termini yunon tilidagi „ikki bukilgan qog'oz“ so'zidan olingan.

Diplomatiyaning shakllanishi davlatning yuzaga kelishi, uning muayyan organlari va lavozimdor shaxslari faoliyati bilan bog'liq bo'lgan. O'zbek davlatchiligi tarixida chet ellar bilan muntazam aloqalar yo'lga qo'yilganligi yaxshi ma'lum.

Diplomatik vakillik - davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqaradigan elchixonona yoki missiya. Elchi boshqaradigan D.v. — elchixonona, vakil yoki doimiy ishlar vakili boshqaradigan D.v. — missiya deb ataladi. D.v. 16—18-asrlarda Yevropada vujudga kelgan. D.v. elchi ayirboshlagan davlatda o'z davlati nomidan muzokaralar olib boradi, vakillik joylashgan davlatning hayoti to'g'risida bundagi vakolatxona (elchixonona, missiya)lar haqidagi qonun yo'l qo'ygan doirada ma'lumotlar to'playdi, har ikkala davlat o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy-texnikaviy aloqalarning rivojlanishiga yordamlashadi, o'z davlati hamda fuqarolarining huquq hamda manfaatlarini qo'riqlaydi. D.v. faoliyatiga raqbarlik qiladigan elchi diplomatik imtiyoz va immunitetga ega. D.v.ning huquqiy mavqei Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi 1961-yilgi Vena konvensiyasi, ikki tomonlama bi-timlar, shuningdek, D.v. joylashgan davlat ichki qonunlari bilan belgilanadi. Xalqaro tashkilotlar huzuridagi (jumladan, kuzatuvchilar missiyasidagi) vakilliklar ham D.v.ning bir turi bo'lib, uning huquqiy mavqei Davlatlarning universal tusdagi xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlari bo'yicha vakilligi to'g'risidagi 1975-yilgi Vena konvensiyasida belgilab berilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Dastavval madaniy diplomatiya tushunchasiga qisqacha izoh berib o'tsak. Madaniy diplomatiya tushunchasi ikki so'z: "Madaniyat" va "Diplomatiya", birikmalaridan yuzaga kelgan. Ikki so'z ham muloqot shakillarini anglatadi, biroq, vazifalari farqlidir. Aniqroq yondashsak, diplomatiya an'anaviy tarzda yopiq eshiklar ortidagi muhokama va muzokaralardan iborat bo'lsa, madaniyat esa mohiyatan ochiq darvozalar va qizg'in muloqotlar maydonidir. Madaniy diplomatiya – bu ikki tomonlama munosabatlarni rag'batlantirish maqsadida madaniyatga oid g'oyalar, ma'lumotlar, qadriyatlar, tizimlar, an'analar, e'tiqodlar kabi bir qator omillar almashinuvida amalga oshiriladi.

Madaniy diplomatiya tushunchasi nisbatan yangi bo'lishiga qaramay, aslida xalqaro munosabatlar sohasida chuqur ildizga egadir. Tarixan qudratli davlatlar odatda muayyan mamlakat va millatlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish maqsadida o'zlarini madaniy diplomatiyaning vasiylari sifatida namoyon qilganlar. Ayniqsa, qudratli davlatlar tomonidan ma'lum bir xalqni o'ziga jalb etish, yo'naltirish, yoki ta'sir o'tkazish jarayonlarida til omillari muhim kuch sifatida aloqa manbaiga aylantirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Diplomatiya>
3. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_huquq
4. Akhmedova, D. R., Ishchenko, I. V., Tillashaykhova, M. K., Navruzova, R. S.,
5. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical
6. costumes. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 534-543.
7. Watson A. Diplomacy. Dialogue between states. – London.: 1982.